XALQ DEPUTATLARI OQOLTIN TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-99-159-9-122-K/23 Oqoltin tumani hokimligi

Sirdaryo viloyat Oqoltin tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24, 25-moddalariga, Budjet Kodeksining 99-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-sonli qaroriga asosan Sirdaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01/38/1014-sonli xatiga asosan, Sirdaryo viloyat Oqoltin tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash maqsadida xalq deputatlari Oqoltin tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi 886-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 24 021 458.0 ming so‘m, xarajatlari 56 378 434.0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 32 356 976.0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Oqoltin tumanining (keyingi o‘rinlarda – tuman) yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

4. Tuman mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

5. 2024 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq;

6. Tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

7. Tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

8. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 6-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

9. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish xuquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

10. Avtotransport yig‘imlarning stavkalari 8-ilovaga muvofiq;

11. 2024-yil uchun Oqoltin tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 9-ilovaga muvofiq;

12. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlari 10-ilovaga muvofiq;

13. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori 11-ilovaga muvofiq;

14. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffisiyentlar miqdori 12-ilovaga muvofiq;

15. 2024-yil uchun yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotrasport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imlar stavkalari 13-ilovaga muvofiq;

16. Oqoltin tuman mahalliy budjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

17. Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun haq to‘lash xarajatlari tuman moliya bo‘limi tomonidan tegishli tartibda yuqori budjetga taqdim

qilingandan talabnomalar asosida tuman mahalliy budjetiga ajratilishi ma’lumot o‘rnida qabul qilinsin;

18. 2024-yil uchun Oqoltin tuman mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 472571,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Oqoltin tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

korxonalar aylanmasidan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va lisenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo

uchun aksiz solig‘i bo‘yicha, tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishincha 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra Oqoltin tuman aholisi sonining ulushiga nisbatan olinishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) Budjetlar o‘rtasida taqsimlanuvchi daromadlar:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.

19. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

20. Qonunga muvofiq 2024-yildan quyidagilar tegishincha tuman mahalliy budjetidan qo‘shimcha ravishda moliyalashtiriladi:

Tuman Davlat soliq inspeksiyasining saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oqoltin tumanidagi Xalq qabulxonasining saqlash xarajatlari.

21. Oqoltin tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (G‘.Xoliqberdiyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Suvanov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmonov), shuningdek tuman tijorat banklari va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

a) tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

b) mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

v) budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

g) budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

d) tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

ye) budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

22. Oqoltin tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmonov) O‘zbekiston

Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

23. Mazkur qaror “Oqoltin ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Oqoltin tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

25. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

26. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Berdiyorova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **K.Ernazarov**

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
1-ilova

Oqoltin tumanining yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	-
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	-
3.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	102,6
4.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,5
5.	Xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	117,8
	savdo, yashash va ovqatlanish xizmati o‘sish sur’ati, foizda	*113,0*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
2-ilova

Oqoltin tuman mahalliy byudjetining 2024 yildagi daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Miqdori
Daromadlar miqdori, jami		56 378 434,0
	shu jumladan:	
	Mahalliy daromadlar	24 021 458,0
	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori	32 356 976,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	4 210 746,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 927 098,0
4	Qatiy belgilangan soliq	375 846,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	136 332,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 633 256,0
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	907 119,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 155 374,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 615 791,0
10	Ijara to‘lovi	59 896,0
11	Taqsimlonuvchi daromadlar	9 510 080,0
	shu jumladan:	
	-Alkagol aksiz solig‘i(shu jumladan piva)	4 122 310,0
	-Mobil aloqaga aksiz soliq	1 660 470,0
	-Tamaki maxsulotlari uchun aksiz soliq	3 727 300,0
12	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori	32 356 976,0

* tamaki, alkagol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan

tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig’i bo’yicha transfertlarni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Oqoltin tuman maxalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad ***	**Xarajat**
Oqoltin tumani	24 021 458,0	56 378 434,0

* tamaki, alkagol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig’i bo’yicha transfertlarni inobatga olmagan holda

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
4-ilova

Oqoltin tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini byudjet tashkilotlari kesimida ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori*
Xarajatlar miqdori, jami		**56 378 434,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**46 765 674,0**
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	65 982,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090,0
	Zahira jamg‘armasi	472 571,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	8 648 767,0
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	406 350,0
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**10 296 380,0**
	shu jumladan:	
	maktabgacha ta’lim	4 945 989,0
	umumiy ta’lim	5 350 391,0
2	**Tibbiyot birlashmasi** *(Davlat sanitariya epidemialogiya va osoyishtalik markazi)*	**1 914 499,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 914 499,0
3	**Madaniyat bo‘limi**	**2 782 855,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 782 855,0
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**6 099 944,0**
	shu jumladan:	
	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	4 521 597,0
	Yoshlar ishlari agentligi	1 578 347,0
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**1 929 359,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 929 359,0
6	**Qishloq ho‘jaligi**	**1 486 407,0**
	shu jumladan:	
	Veterenariya v chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 116 877,0
	Tuman fermer, dexqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi	369 530,0
7	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 181 078,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 181 078,0
8	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10 067 023,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 067 023,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000,0
9	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 084 969,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 084 969,0
10	**Davlat soliq inspeksiyasi**	**3 155 618,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 155 618,0
11	**Oila va xotin qizlar bo‘limi**	**877 057,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	877 057,0
12	**Hokimiyat**	**14 503 245,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 425 317,0
	Axborot-kutubxona markazi	465 168,0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	65 982,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090,0
	Zahira jamg‘armasi	472 571,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	8 648 767,0
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	406 350,0

** Qarorning 4-ilovasiga muvofiq byudjet taqsimlovchilari kesimida ajratilgan mablag‘lar asoslantirilgan hisob-kitoblarga asosan ortiqcha mablag‘ rejalashtirilgan taqdirda belgilangan tartibda maqbullashtiriladi hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun qayta taqsimlanadi.*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Tuman nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajaratiladigan mablag‘lar**
JAMI	**32 356 976,0**	**9 510 080,0**
shundan		
Oqoltin tumani	32 356 976,0	9 510 080

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda
1.	**Uy-joylar:**		
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.myetri uchun	5 000
	noturar joy		10 000
2.	**Avtomobil transporti:**		
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	780 000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 550 000

Izoh: *Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi hamda ko‘chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi shartnomalardan tashqari) ham tadbiq etiladi.*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	300 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	150 000

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024 yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlarning stavkalari

№	**Yig‘im turi**	**Bitta avtotransport (avtopoyezd) uchun yig‘im stavkasi** *(AQSh dollarida)*
1.	Chet davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im (bundan 2 — 7 bandlarda ko‘rsatilgan davlatlar mustasno)	400
2.	Tojikiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im, yuk ko‘tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3.	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	300
4.	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	300
5.	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im, yuk ko‘tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
6.	Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	150

7.	Afg‘oniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	50

Izohlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab chet davlatlarning og‘ir vazinli va yirik gabaritli yuk avtotransport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.*
2. *O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.*
3. *Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffisiyent qo‘llaniladi.*
4. *Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
9-ilova

2024 yil uchun Oqoltin tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

(foiz hisobida)

№	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda syement xom ashyosi va syement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Oqoltin tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
10-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha

1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

ming so‘mda

№	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming.so‘m)
1	A.Navoiy MFY	0,8	21 600,00
2	Andijon MFY	0,7	18 900,00
3	Axillik MFY	0,7	18 900,00
4	Bo‘ston MFY	0,7	18 900,00
5	Ko‘rkam diyor MFY	0,8	21 600,00
6	Mustaqillik MFY	0,8	21 600,00
7	Obod MFY	0,8	21 600,00
8	Saxovat MFY	0,8	21 600,00
9	Toshkent MFY	0,8	21 600,00
10	Shodlik MFY	0,7	18 900,00
11	Yangi davr MFY	0,8	21 600,00
12	Yangi toshkent MFY	0,7	18 900,00
13	Yangi xayot MFY	0,8	21 600,00

Izox: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
11-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

so‘mda

№	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun
1	A.Navoiy MFY	1,07	216,57
2	Andijon MFY	0,97	196,33
3	Axillik MFY	0,97	196,33
4	Bo‘ston MFY	0,97	196,33
5	Ko‘rkam diyor MFY	1,07	216,57
6	Mustaqillik MFY	1,07	216,57
7	Obod MFY	1,07	216,57
8	Saxovat MFY	1,07	216,57
9	Toshkent MFY	1,07	216,57
10	Shodlik MFY	0,97	196,33
11	Yangi davr MFY	1,07	216,57
12	Yangi toshkent MFY	0,97	196,33
13	Yangi xayot MFY	1,07	216,57

Izox: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
12-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffisiyentlar

so‘mda

№	Hudud nomi	Koeffisiyent (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2023 yil uchun (so‘m)
1	Oqoltin tumani	0,7	840 000,0

Izox: *Yirik soliq to‘lovchilardan tashqari*

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
13-ilova

2024 yil uchun yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotrasport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imlar stavkalari

№	**Yig‘im turi**	**Bitta yuk avtotransport vositasi va tirkama uchun yillik yig‘imlar stavkalari** *(bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan koeffisiyentda)*
1.	Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im:	
1.1.	yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan 25 tonnagacha bo‘lgan	5
1.2.	yuk ko‘tarish quvvati 25 tonnadan 35 tonnagacha bo‘lgan	8
1.3.	yuk ko‘tarish quvvati 35 tonna va undan yuqori bo‘lgan	10

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-159-9-122-K/23-son qaroriga
14-ilova

Oqoltin tuman mahalliy byudjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

№	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Oqoltin tumani	461 185,0